



Ijtimoiy tadbirkorlik: mohiyati va ahamiyati

Xashimova Salima Nig'matullayevna

Toshkent davlat texnika universiteti

“Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti” kafedrasida dotsenti

Mamatmo'minova Zaxro Ibroxim qizi

TDTU talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada ijtimoiy tadbirkorlik mohiyati, uni ahamiyati, shuningdek O'zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha xorij tajribasidan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tadbirkorlik, ehtiyojmand qatlam, an'anaviy biznes, ijtimoiy muammolar, imtiyozlar, ijtimoiy institutlar.

Аннотация. В статье описана сущность социального предпринимательства, его значение, а также вопросы, связанные с развитием социального предпринимательства в Узбекистане.

Ключевые слова: социальное предпринимательство, малообеспеченный слой, традиционный бизнес, социальные проблемы, льготы, социальные институты.

Abstract. The article describes the essence of social entrepreneurship, its importance, as well as issues related to the development of social entrepreneurship in Uzbekistan.

Key words: social entrepreneurship, needy stratum, traditional business, social problems, privilege, social institutions.

Yigirmanchi asrning o'rtalarida kapitalistik mamlakatlarda "ijtimoiy biznes" tushunchasi qo'llanila boshlandi. Uning mohiyati shundan iboratki, biznes faqat foyda olish uchun emas, balki jamiyat uchun foydali ishlar olib boradi. Bu sohada odamlarni foyda olish istagi emas, balki insoniyatni ba'zi global muammolarni hal qilish istagi, masalan, suv etishmasligi yoki atrof-muhitning ifloslanishi. G'oya tadbirkorlarni daromad keltirishi mumkin bo'lgan sohalarga boshqacha qarashga majburlash edi.

Bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun xayriya va tijorat, innovatsiyalar va an'anaviy biznes amaliyotlari chorrahasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar tobora ko'payib bormoqda. Shunga qaramay, "ijtimoiy tadbirkorlik" fenomeni rivojlanishining huquqiy jihatlari hali o'zining boshlang'ich bosqichlaridadir.

Mamlakatimizda ham ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish, aholini ijtimoiy ximoya qilish borasidagi eng muhim vazifalarimizdan biri hisoblanadi. Bu borada davlatimiz, hukumatimiz tomonidan iqtisodiyotni barqarorlashtirish, biznes vakillarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'rilmogda.



Aholi daromadini oshirishda ishlab chiqarishni rivojlantirish, tadbirkorlik sub'yektlarini ko'paytirish, ayniqsa, kam ta'minlangan va ishsiz aholi qatlamlarini daromadi keskin kamayishining oldini olish o'ta muhim va dolzarb vazifa ekanini ko'rsatdi.

Aholini, ehtiyojmand qatlamini ijtimoiy va moddiy qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratilib, moddiy yordam va ko'makka muhtojlar ro'yxatiga kiritilgan moddiy yordam puli berilishi bilan ularning muammosini butunlay hal etib bo'lmaydi.

Bugungi kunda ijtimoiy ahamiyatga molik muammolarni hal etishda yangi yondashuvlarni tatbiq etish, xalqaro tajribada keng qo'llaniladigan usullarni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Demak, bu masalaga bugun hayotimizda keng kirib kelayotgan ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqaligina yechim topishda muximdir.

Ijtimoiy tadbirkorlik – bu jamiyatning ijtimoiy muammolarini hal qilishga qaratilgan tadbirkorlik turi hisoblanadi. Sodaroq qilib aytganda, bu ijtimoiy maqsadlarni ko'zlaydigan biznes bo'lib, bunda daromadlar korxonalar egalarining daromadlarini ko'paytirishga yo'naltirilmaydi. Bunday korxonalarining ishiga asosan ijtimoiy jihatdan nobarqaror holatda bo'lgan yoki nogironligi bo'lgan shaxslar jalb etiladi.

Amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq, aholining ijtimoiy zaif qatlamlari uchun ish o'rinlarini yaratish, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun mahsulot va asbob-uskunalar ishlab chiqaradigan korxonalar uchun soliq va boshqa turdagi imtiyozlar belgilangan. Biroq amaldagi qonunchilikda "ijtimoiy tadbirkorlik"ning huquqiy tushunchasi va ijtimoiy tadbirkorlikka oid munosabatlarni huquqiy tartibga solish mexanizmlari aniq belgilanmagan.

Ijtimoiy tadbirkorlik borasida AQSH, Buyuk Britaniya, Polsha, Belgiya, Italiya va boshqa davlatlar qonunchiligi o'rganilganda, ushbu tadbirkorlik faoliyatining yo'lga qo'yilishi natijasida aholining ijtimoiy zaif qatlamlari ish bilan ta'minlanishi bilan birga, ijtimoiy tovarlar ishlab chiqarish va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish borasida yuqori natijaga erishilganini ko'rish mumkin.

Bundan anglash mumkinki, xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy tadbirkorlikka oid munosabatlarning huquqiy tartibga solinishi natijasida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga ish o'rinlarini yaratish, ijtimoiy tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish borasida samarali natijalarga erishilgan.

Ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqib, aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga mansub shaxslar sifatida I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar, nogiron bolalar, qaramog'ida 16 yoshga to'lmagan yoki nogironligi bo'lgan bolalari bo'lgan yolg'iz shaxslar hamda "Mehribonlik" uylarining 30 yoshga yetmagan bitiruvchilari va jazoni o'tash muassasalaridan ozod qilingan shaxslar belgilanmoqda.

Mamlakatimizda ijtimoiy tadbirkorlik institutini yaratish va uni rivojlantirishning ijtimoiy muammolarni hal qilishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy tadbirkorlik- jamiyatning eng dolzarb muammolariga qarshi innovatsion yechimlarga ega kishilardir. Ular daromadlarini ko'paytirishdan ko'ra inson va atrof-muhit farovonligini yanada yaxshilash maqsadida o'z tijorat strategiyasini amalga oshiradilar hamda qiyin turmush vaziyatida qolgan yoki unga tushib qolish ehtimolligi yuqori bo'lgan



kishilarni to'laqonli hayotga qaytarish maqsadida huquqiy, iqtisodiy, o'quv psixologik va shu kabi usullar bilan yordam beradilar.

Xorij mamlakatlarida ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- imtiyozlar va preferensiyalar taqdim etish;
- ijtimoiy loyiha xarajatlarini subsidiyalash;
- davlat ijtimoiy buyurtmasini joylashtirish;
- moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash;
- ijtimoiy korxonalar xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;
- maslahat berish, metodik yordam ko'rsatish va axborot jihatidan qo'llab-quvvatlash.

Ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish quyidagi muammolarni hal qilishi mumkin:

-jamiyat ehtiyojlarini qondirishga yordam beradigan sivilizatsiyalashgan va raqobatbardosh bozor munosabatlarini shakllantirish;

- mahsulot, ish va xizmatlar sifatini oshirish, ularning turlarini kengaytirish;
- xizmat ko'rsatish darajasini oshirish;
- tovar ishlab chiqarishni aniq iste'molchilarga yaqinlashtirish;
- ishsizlik darajasini pasaytirish va qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish;
- ayrim toifadagi fuqarolarni mehnat faoliyatiga jalb qilish (pensiyaadagilar, nogironlar, talabalar va boshqalar);
- iqtisodiyotni qayta qurishga ko'maklashish;
- mulkdorlar, tadbirkorlarning ijtimoiy qatlamini shakllantirish;
- yirik ishlab chiqarish chiqindilaridan mahalliy xomashyodan foydalanish;
- asbob-uskunalar, butlovchi qismlar ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va yordamchi sanoat tarmoqlarini yaratish orqali yirik ishlab chiqarishni rag'batlantirish;
- ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni faollashtirish;
- iqtisodiy sohani norentabel va past rentabelli korxonalaridan ularni sotib olish yoki ijaraga berish orqali ozod qilish.

Iste'molchi talablarini qondirishga intiladigan ijtimoiy tadbirkorlik iqtisodiyotga harakatchanlik, moslashuvchanlik va chaqqonlik beradi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan biznesning o'zini o'zi tashkil etish resursidan foydalanishi tijorat tashkilotlariga nisbatan ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirishi va fuqarolarning mavjud ijtimoiy infratuzilma tomonidan taqdim etilmagan xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish orqali aholining turmush darajasini oshirishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, dunyoda iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishi Uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini oldini olishda, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar hukumatlari ijtimoiy tadbirkorlikning huquqiy asoslarini yaratish bo'yicha samarali choralarni ishlab chiqishga ustuvor ahamiyat bermoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi sharoitida, ijtimoiy tadbirkorlik institutini yaratish va uni rivojlantirish uchun davlat tomonidan to'laqonli qo'llab-quvvatlash tizimini nazarda tutuvchi me'yoriy asoslarni ishlab chiqish, shu jumladan ularga subsidiyalar, imtiyozlar va



preferensiyalar taqdim etish, AQSH, Buyuk Britaniya, Polsha, Belgiya, Italiya va boshqa davlatlar tajribasidan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi № 376 qonuni. II bob, 5-modda
2. <https://oldparliament.gov.uz/uz/laws/discussed/33501/>
3. <https://spravochnick.ru/sociologiya/>

